

EVFEMIZMLAR VA FRANSUZ LINGVISTIKASIDAGI O'ZGARISHLAR

Otamurodova Dilafruz Raxmonovna

Fransuz tili amaliy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

otamurodovadilafruz@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada evfemizmlarning fransuz tili lingvistikasidagi ayrim xususiyatlari tahlil qilinadi. Lingvistika va adabiyotda ko'proq evfemizmlarga murojaat qilish, g'oyani ochib berishda ushbu so'zlardan mohirona foydalanish, uning asarlarning ta'sirchanligini oshirib, keng kitobxonlar orasida sevilib o'qilishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, maqolada evfemizmlar, ularning turlari va qo'llanilishi tahlil qilinadi.

Калит сўзлар: эвфемизм, лингвистика, лексика, адабиёт, воқеа, мазмун, давр.

Ma'lumki, til tinimsiz taraqqiyotda, rivojlanishda bo'ladi. Lingvistik qonuniyatlar insoniyat tarixi bilan chambarchas bog'liq. Eng avvalo, lingvistik o'zgarishlarning sababini insoniyat tarixidan qidirmoq zarur. [1, 98]

Jamiyatdagi o'zgarishlar turli urf-odatlar, fan va texnikaning taraqqiyoti natijasida paydo bo'ladi. Lingvistik o'zgarishlar esa tilning o'ziga xos qonun-qoidalarini asosida leksikada aks etadi. Leksika esa inson faoliyati bilan bog'liq ravishda doim o'zgarib turadi. Ayni shu jarayon fransuz tilida asosan uch yo'l bilan amalga oshadi:

1) yangi so'zlar yasash; 2) tildagi mavjud so'zlarning ma'no o'zgarishi leksikaning ichki imkoniyatlari asosida; 3) boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar hisobiga boyishining tashqi manbaidir.

Leksikologiyaning maxsus shoxobchasi, semasiologiya, so'zlarning semantik strukturasi (ma'no tuzilishini) va ma'no taraqqiyotini o'rganadi.

Asrlar davomida so'zlar har xil murakkab o'zgarishlarga duch keladi, bular ma'noning kengayishi va torayishi, "salbiylashishi" va "ijobiylashishi", kuchsizlanishi va kichrayishidir. Ma'no o'zgarish evolyusiyasi sabablarini va qonun-qoidalarini o'rganish semasiologiya predmetidir. [2, 65]

"Evfemizm" so'zi grekcha bo'lib, "eu - bien" (yaxshi) va phêmi – je parle (men gapiryapman), ya'ni birgalikda "so'zning ma'nosini yumshatish" demakdir. Ba'zi so'z va iboralarning haqiqiy ma'nosini yashirishga evfemizm deyiladi. Bu qadimgi semantik hodisa hisoblanadi. Evfemizmlar qadimgi tabularda, ta'qiqlangan nutqda, biron baxtsizlik yuz bermasligi uchun talaffuz etish ta'qiqlangan so'zlarda uchraydi.

Shuning uchun evfemizmlar odatda uch turga ajratiladi :

1. Xurofotga berilganlar evfemizmlari (les euphémismes de superstition);
2. Odoblik evfemizmlari (les euphémismes de politesse);
3. Axloqlik evfemizmlari (les euphémismes de décence).

Evfemizmlarning keyingi ikki turi, odoblik va axloqlik evfemizmlari juda yaqin bo'lganligi uchun ko'pchilik tilshunoslar evfemizmlarning bu ikki turini birgalikda o'rganadilar. [3, 108]

1. Ibtidoiy odamlar la'natlangan hayvonlar va narsalarning nomlarini ularning g'azablanishlaridan qo'rqib aytishga jur'at etmaydilar. Masalan: l'ours (ayiq)ni le grand frère (buyuk og'a) deb aytganlar. Ko'pgina so'kish - haqoratlarda "Dieu" xudo so'zining tashqi shakli (qiyofasi) buzilgan holda ishlatilgan. Masalan, fransuz tilida xudoning nomi bilan haqoratlamok, la'natlamok ma'nolarini beradi: jujer par le nom de Dieu.

Xurofotga berilganlar evfemizmlarda dindorlar le diable (shayton - ajina) nomini aytishdan qo'rqishib, ularni buzilgan shakllarda talaffuz qilganlar. Masalan: dache, diantre; o'lmoq (mourir) fe'lini aytishdan qo'rqan xalq, uni bir qator sinonimlar bilan almashtirib ishlatgan: Masalan, mourir (o'lmoq) o'rniga trépasser (vafot etmoq), passer au déla (olamdan o'tmoq), s'endormir (uyquga ketmoq), rendre l'âme (jonini egasiga topshirmok), quitter le monde (dunyoni tark etmoq), quitter les siens – (o'zlarinikini tashlab ketmoq), fermer les yeux (ko'zini yummoq), partir (u dunyoga ketmoq) fe'llari ishlatilgan. Xalq qabr toshlariga ci – gît (bu yerda yotibdi), ici repose (bu yerda dam olyapti) kabi gaplarni yozishgan.

2. Fransiyada paydo bo'lgan (XVII asrda) zodagonlar tilining bu turi axloq evfemizmlarining bir ko'rinishidir. Masalan: la mort (o'lim) o'rniga la toute-puissante (har narsaga qodir), la chemise (ko'ylak) o'rniga la campagne perpétuelle des morts et des vivants (o'liklarning ham, tiriklarning ham doimiy hamrohi), les oreilles (quloqlar) o'rniga les portes de l'entendement (fahm – farosat eshiklari) iboralarini ishlatganlar. Shuningdek, argoda ham evfemizmlar ko'p uchraydi. Masalan: tuer (o'ldirmok) o'rniga refroidir (sovitmoq), apaiser (tinchlantirmok), expédier (jo'natmoq) fe'llari ishlatilgan.

Odamlarning nuqson va ayblarini yashirish maqsadida, odatda odob va ahloq evfemizmlari ishlatiladi. Tilshunoslikda bu hodisani "litot", "so'z ma'nosining yumshatilishi" deb yurgiziladi. Masalan: un homme ivre (mast odam) o'rniga il est dans les vignes du seigneur - (u janob uzum huzurida), il est illuminé (u porlab turipti), il est dans les brouillards (u tumanda), il a son coup de soleil (uni oftob uribdi) kabi iboralarini ishlatiladi. [3, 110]

Un homme pauvre (kambag'al odam) o'rniga il est à sec (u quruq), il tire le diable par la queue (u shaytonni dumidan tortyapti), il loge le diable dans sa bourse (shaytonni maoshiga boqyapti) deyiladi.

Une fille laide (xunuk qiz) o'rniga elle n'est pas belle (u qiz chiroyli emas) deb yumshatiladi.

Xulosa qilib aytganda, har qanday tilning paydo bo'lishi, rivojlanishi ijtimoiy hodisalar va jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Til jamiyatdan tashqarida yashay olmaydi va insoniyatga xizmat qiladi. Tilning boshqa ijtimoiy hodisalardan farqi insoniyat uchun aloqa qilish quroli ekanligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi – Toshkent: O'qituvchi, 2012 – 265 b.
2. Gez N. Metodika obucheniya inostrannym yazykam v sredney shkole – Moskva: Vysshaya shkola, 1982 – 340 b.
3. Lopatnikova N. Movshovich N. Leksikologiya sovremennogo fransuzskogo yazyka. – Moskva, 1982 – 268 b.
4. Бахронова Д. Оламнинг лисоний манзараси тасвирида концепт ва концептосфера. / Хорижий филология, 2019. – №3. – Б. 62-68.
5. Бахронова Д. К. Ўзбек ва испан тилларида олам манзарасининг лингвокогнитив категорияланиши.: Филол. фан. д-ри дисс., 2022. – 245 б.